

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: DARIY TILIDA OT FRAZEOLOGIZMLARI VA
ULARNING LEKSIK VARIANTLARI**

Bitiruv malakaviy ishda Oflar va ularning leksik variantlarini tadqiqi,fors, dariy va o‘zbek tilshunoslarining mavzuga oid qarashlari o‘rganilgan, OFlarning tarkibi va sintaktik bog‘lanishiga ko‘ra modellari aniqlangan, OFlarda leksik va grammatik, fonetik va grafik variantlanish hodisasi yoritilgan, OFlarda sinonimiya hodisasi tahlil qilingan.

Bajardi: “Filologiya va tillarni o‘qitish” ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Nadjimutdinova Anora_____

Ilmiyrahbar: “Eron-afg‘on
filologiyasi” kafedrasidots.,f.f.n. **Alimova X.Z.**

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladi

“Sharq filologiyasi” fakulteti
dekani f.f.n., dots. Omonov Q.

“Eron-afg‘on filologiyasi” kafedrası
mudiri f.f.n., dots. Alimova X.

“____”iyun 2015 y.

“____”iyun 2015y.

DARIY TILIDA OT FRAZEOLOGIZMLARI VA ULARNING LEKSIK VARIANTLARI

MUNDARIJA

KIRISH		4
I BOB	Dariy tilidagi ot frazeologizmlarining struktur tahlili.....	9
1.1.	Izofali FBlar.....	11
1.1.1.	Ikki tarkibli izofali FBlar.....	12
1.1.2	Uch tarkibli izofali FBlar.....	14
1.2.	Old ko‘makchi birikma boshida kelgan FBlar.....	14
1.2.1.	Old ko‘makchi birikma boshida kelgan ikki tarkibli FBlar.....	15
1.2.2.	Old ko‘makchi birikma boshida kelgan uch tarkibli FBlar.....	15
1.2.3.	Izofali old ko‘makchi birikma boshida kelgan bir, ikki va uch tarkibli FBlar.....	15
1.3.	Old ko‘makchili FBlar.....	16
1.4.	Kopulyativ FBlar.....	17
1.5.	Bitishuvli FBlar.....	18
1.6.	Aralash turdagi FBlar.....	19
II BOB	Dariy tilida ot frazeologizmlari va ularning leksik variantlari.....	22
2.1.	Ot frazeologizmlarida variantlanish.....	22
2.1.1.	Ot frazeologizmlarida leksik variantlar.....	26
2.1.2.	Ot frazeologizmlarida grammatik variantlar.....	30
2.1.3.	Ot frazeologizmlarida leksik-grammatik variantlar.....	31
2.1.4.	Ot frazeologizmlarida fonetik va grafik variantlar.....	32
2.2.	Ot frazeologizmlarida sinonimiya.....	34
XULOSA		42
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI		45

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim va ilm-fanda ham yangi davr boshlandi, ayniqsa yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor kunda-kunga kuchayib bormoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan bahramand qilishga katta e'tibor berilmoqda"¹. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda xorijiy tillargabo'lgan e'tibor kuchaymoqda, chunki butun dunyoda globallashuv va integratsiyalashuv kuchaygan davrda xorijiy tillarni o'rganish davr talabi bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Butun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"².

Frazeologizmlar murakkab til hodisasi sifatida tilda so'z (leksik-semantik birlik) va so'z birikmalari (sintaktik birlik) orasida turuvchi birlik hisoblanadi³. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan frazeologizmlar, so'zlar kabi tilning lug'aviy birligidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap tipida bo'lsa ham, lekin ular nutq birligi bo'lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi. So'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir. Frazeologizmlar ham, xuddi so'zlar kabi, shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomonini tovushlar tashkil etsa, frazeologizmlarda esa shakliy tomonni so'zlar tashkil qiladi.

Frazeologizmlar ham xuddi maqol va matallar kabi avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Ushbu jihatdan, frazeologizmlar ma'lum xalqning tarixi, madaniyati, maishiy hayoti, turmush tarzi hamda ayrim shaxslarning xulq-atvorini aks ettirish bilan madaniy-informatsion funksiyani ham bajaradi. Shuningdek, ularning

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsilikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1997. –B. 257.

² Barkamolavlodorzusi. Prezident I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan "Barkamolavlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli nutqidan. –T., 1999. –B. 15.

³ Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. –М., 1978. –С. 11.

ayrimlarida ekspressivlik, soʻzlovchining voqea va narsa-predmetlarga nisbatan subyektiv, yaʼni ijobiy yoki salbiy munosabati, baʼzilarida esa hodisa, narsa, belgining sifat yoki miqdor tavsifi oʻz aksini topgan.

Tilning leksik tarkibida frazeologizmlar muhim oʻrin egallaydi. Ular fikrni obrazli va aniq tarzda berib, voqelikning har xil tomonini aks ettiradi. Frazeologizmlar nafaqat voqelikning ochiq koʻrinishini, balki uni xarakterlashtirib, unga maʼlum baho beradi. Maʼnolar munosabatida ular yagona tushunchaga toʻgʻri kelib, predmet, jarayon, holat, sifat, xususiyat va usulni ifodalaydi. Tilning umumiy sistemasi bilan munosabatda boʻlgan qonuniyatlarni oʻzida namoyon qiladi.

Frazeologizmlarni oʻrganish, shubhasiz, tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitmoqda. Frazeologizmlarni chuqur oʻrganish orqali frazeologizmlarning umumnazariy muammolari boʻlmish frazeologiya obyektini tor va keng maʼnoda tushunishning mohiyati, frazeologizmlarning boshqa til birliklari bilan munosabati, frazeologizmlarning til va nutq birligi sifatidagi xususiyatlari tadqiq qilinmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarning mohiyati va ularni tilning birligi sifatidagi taʼrifi ustida izlanishlar davom etmoqda. Lugʻat boyligidagi frazeologik birliklarni Sh.Rahmatullayev *frazemalar*⁴deb nomlashni maʼqul koʻrdi va til qurilishini lugʻat boyligi asosida leksemalar tizimi bosqichi va frazemalar tizimi bosqichiga ajratdi, leksemalar tizimi bosqichini oʻrganuvchi sohani leksemika, frazemalar tizimi bosqichini oʻrganuvchi sohani esa *frazemika* deb nomlashni taklif etdi. Olim tomonidan oʻzbek tilshunosligida birinchilardan boʻlib qoʻllangan sema, leksema, leksemashakl, komponent tahlil, frazema kabi terminlar bugungi kunda faol qoʻllanmoqda. Vaholanki, zikr etilayotgan *frazema* termini Sh.Rahmatullayev tomonidan ancha ilgari ishlatilgan va unga quyidagicha izoh berilgan edi: “Lugʻat boyligidagi ikkinchi qatlamni iboralar tashkil etadi, bular frazeologik birlik deb yuritiladi; leksema terminiga monandlab frazema deb

⁴Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.-T.,2006.-B.420.

nomlaymiz. Frazemalarni o'rganuvchi soha-frazeologiya deyiladi. Lug'at boyligidagi frazeologik qatlam ham frazeologiya deb nomlanadi".

Dariy tili ham frazeologik birliklarga (keyinchalik FB) boy tillardan biridir. Ushbu tilidagi frazeologizmlarni o'rganish jarayonida afg'onlar tarixi va urf-odatlariga doir juda ko'p qimmatli axborotlarga ega bo'ldi. Xalqlarning dunyoqarashi, chuqur mantiqiy fikrlari, his-tuyg'ulari, hayot tarzi, yashab turgan muhiti, tabiiy shart-sharoiti va to'plagan hayotiy tajribalari ularning tilida o'z ifodasini topgan. Xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo'lmish iboralar kundalik so'zlashuvda, har yerda, har qanday sharoitda ham muloqot ta'sirini kuchaytiruvchi vosita sifatida keng qo'llanib kelinmoqda. Lo'nda, muayyan qolipga tushgan, ta'sirli iboralar xalq badiiy tafakkurining boshqa na'munalaridan uzoqroq umr kechirib kelmoqda.

Ko'p yillar davomida fors tilida frazeologizmlar bo'yicha ish olib borgan rus eronshunos olimi Yu.A. Rubinchik o'zining ko'p yillar davomidagi mehnati samarasi bo'lgan "Основы фразеологии персидского языка" monografiyasida ko'rsatishicha, frazeologik birliklar tuzilishi jihatidan birikmaga yoki gap shakliga teng bo'lgan turg'un so'zlar birikmasi bo'lib, leksik tarkibning doimiyliigi, tayyor holda takror qo'llanilishi, komponentlari orasidagi bog'lanishning turg'unligi va ma'no yaxlitligi bilan xarakterlanadi. Lekin bunday xususiyatlar barcha frazeologizmlar uchun xos emas. Ularning struktur tuzilishi va semantik doirasini hisobga olish kerak. Ammo barcha frazeologik birliklar uchun xos bo'lgan narsa – bu ularning tayyor holda takror qo'llanilishidir⁵, degan ta'rif beriladi.

Mavzuning dolzarbligi. Frazeologizmlar fikrni keng qamrovda, obrazli, o'tkir ma'noli ifodalash xususiyati bilan boshqa til birliklaridan farqlanadi. Shu bilan birga, ularda qo'shimcha ma'no va ma'no qirralarining kuchli ifodalanishi frazeologizmlarning xarakterli tomonlari hisoblanadi. Shu jihatlari bilan frazeologizmlar hozirda ko'pgina tillarda tadqiqot obyektiga aylanmoqda. "Frazeologizm" tushunchasi, uning tarkibi va hajmi, milliy xususiyati, madaniy-informatsion funksiyasi va shu kabi boshqa xususiyatlari hali ham dolzarbligicha

⁵ Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. -М.:Наука,1981. – С.8-112.

qolmoqda. Shuning uchun mazkur tadqiqot dariy tili frazeologiyasining dolzarb va muhokamali qismlaridan bo‘lmish dariy tilidagi ot frazeologizmlarning struktur tahlili va ularning leksik variantlariga bag‘ishlangan. Dariy tilida “frazeologizm” tushunchasi, uning hajmi, leksik-semantik xususiyatlari, struktur tuzilishi, grammatik xarakteristikasi hamda frazeologizmlarda variantlanish kabi masalalar deyarli o‘rganilmagan, mavjud tadqiqotlarda ham alohida to‘xtalmay, odatda dariy tili umumiy frazeologiyasi doirasida o‘rganilgan. Zero, nutq va adabiyotda keng qo‘llanishda bo‘lgan frazeologizmlarni har tomonlama o‘rganib, ulardan yakuniy xulosalar chiqarish, ayni paytda dariy tilidagi dolzarb masalalardan sanaladi. Bundan tashqari frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi.

Dariy tili frazeologizmlarini o‘rganish—bu afg‘onlarning qadimdan shakllangan boy va rang-barang tarixini, xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi, an‘ana, urf-odati, umuman, madaniyatini o‘rganish demakdir.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Dariy tilshunosligida ot frazeologizm (keyinchalik –OF)larini o‘rganishda maxsus nazariy tadqiqotlar olib borilmagan. Umuman frazeologiya ko‘proq leksikografiya, ya’ni amaliy lug‘atshunoslik obyekti bo‘lib xizmat qilgan va ko‘pgina lug‘atlarda aks etgan. Dariy tilida frazeologizmlarning umumiy yoki alohida masalalariga bag‘ishlangan nazariy tadqiqotlar afg‘on olimlari tomonidan hanuzgacha olib borilmagan. Lekin rus afg‘onshunos va eronshunos olimlari dariy va fors tilida frazeologik birliklarning nazariy konsepsiyalarini ishlab chiqish bilan birga, ularning struktur va semantik turlarini, funksional va uslubiy jihatlarini o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berganlar. Masalan, Yu.Vorontsov, A.G‘aniyev kabi afg‘onshunos olimlarining ushbu sohadagi xizmatlari katta. Eronshunoslikda yaratilgan qator ilmiy ishlar ham o‘z navbatida dariy tili frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o‘ynadi. Bu borada ko‘plab dissertatsiyalar va monografik kuzatishlar, ilmiy maqolalar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, frazeologiyaning global jihatlarini muammolari munozaraligicha qolmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Malakaviy ishdan ko‘zlangan maqsad OFlari va ularning leksik variantlarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot davomida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- fors, dariy va o‘zbek tilshunoslarining mavzuga oid qarashlari o‘rganildi;
- OFlarining tarkibi va sintaktik bog‘lanishiga ko‘ra modellari aniqlandi;
- OFlarida leksik va grammatik, fonetik va grafik variantlanish hodisasi yoritildi;
- OFlarida sinonimiya hodisasi tahlil qilindi.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqotga manba sifatida Ahmadsayyorning⁶ “دریغراز یولوژی مختصر قاموس” (Kobul, 1362) lug‘atidagi ot frazeologizmlari, shuningdek, Babrak Arg‘andning “خنجر و آیینہ” va “شراره” qissalari, Inoyatulloh Shahroniyning “عنايت الله شہرانی. ضرب المثلہای دری افغانستان” (AQSH, 1998), shuningdek internet saytlaridagi maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti hozirgi dariy tilida ot frazeologizmlari va ularning leksik variantlari. Ishimizda dariy tilidagi ot frazeologizmlarining struktur tahlili va variantlanish hodisasi haqida so‘z yuritamiz.

Tadqiqot metodlari. To‘plangan materiallarning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ularni ilmiy tadqiq qilishda tilshunoslikdagi struktural distributiv metodidan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Dariy tilida hozirgi kunga qadar ot farzeologizmlarining struktur tahlili va variantlanish hodisasi haqida maxsus tadqiqot ishi o‘zbek tilida qilinmagan. Dariy tilida OFBlarni aniqlash va ularni tahlil qilishda manbalar tahlil qilindi va uchragan OFBlar ro‘yxatga olindi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, ishning mohiyatini aks ettiruvchi ikki asosiy tadqiqot bobi, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxatidan iborat.

⁶ احمدسيار. دریغراز یولوژی مختصر قاموس. کابل. ۱۳۶۲. ص. ۱۴.

BIRINCHI BOB

DARIY TILIDAGI OT FRAZEOLOGIZMLARINING STRUKTUR TAHLILI

Ma'lumki, frazeologik birliklar ikki va undan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'no kashf etishi bilan yuzaga keladi.

Masalan:

رنج دل 'yurak ranji'

آب چشم 'ko'z yoshi'

حواله سر خرمن 'yolg'on va'dalar'

نور دو چشم 'ko'z nuri', 'farzand'

Frazeologik birlikning chigal tomonlaridan biri ularning shakl jihatdan qo'shma so'z, so'z birikmasi va gapga o'xshashligidir. Lekin frazeologik birlik so'zlashish jarayonida butun va barqaror holda shakllanganligi hamda tilga xos birlik bo'lgani uchun qo'shma so'z, so'z birikmasi va gapdan keskin ravishda farq qiladi⁷. Ular gap tarkibida bir gap bo'lagi bo'lib keladi hamda kengaytiruvchi ma'noni beradi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, FB tarkibi ikki yoki ko'p tarkibli bo'lishi mumkin. FB tarkibida ikki yoki undan ortiq so'zlar qatnashadi. FB tarkibida ushbu so'zlar o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, butunlay ko'chma ma'no hosil qiladi hamda ularning ma'nosi bir so'z ma'nosiga teng bo'ladi. Qisqacha qilib aytganda, FBlar so'zning ekvivalenti bo'lib keladi. O'zbek eronshunos olimlaridan biri M.Abidovning ko'rsatishicha, frazeologizmlar so'zga teng, biroq unga ekvivalent emas⁸. Bu esa frazeologik birlik so'zga ekvivalentdir degan fikrni yana bir bor o'rganib chiqish lozimligini taqozo qiladi. Lekin frazeologik birlik ma'nosi bir so'z ma'nosiga teng bo'lsa ham uni leksemadan farqli tomonlari mavjud. Bu tafovutlarni o'zbek tilshunoslaridan biri B.Yo'ldoshev o'zining "Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy

⁷Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari. - T., 1993. – B.13.

⁸Абидов М. Субстантивные фразеологизмы в современном персидском языке. – М., 1988. – С. 7.

xususiyatlari”(T., 1993) nomli kandidatlik dissertatsiyasida ko‘rsatib o‘tgan. Muallif “...birinchidan FBlar hajm jihatdan so‘zga nisbatan katta va keng ma’noli bo‘lsa, ikkinchidan ular inson ruhiy holatini ifodalashda so‘zga nisbatan kuchliroqdir. Ya’ni ko‘pincha FBlarning ifoda semalarida obrazlilik, bo‘yoqdorlik bo‘rtib turadi”⁹, deya ta’rif beradi. Demak, FBlar so‘zga ekvivalent emas. Ular ma’no ifodasiga ko‘ra so‘zlardan farq qiladi, hatto ustun turishi ham mumkin.

Frazeologizmlarning yana bir asosiy belgilaridan biri bu birikmaning majoziy ma’noni ifodalovchi barqaror va doimiy birlik bo‘lib kelishidir. Ya’ni u birdan ortiq mustaqil so‘zlardan tashkil topgan bo‘lsa ham, biroq uning ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning to‘la yoki qisman ko‘chma ma’noda ishlatilishi natijasida hosil bo‘ladi. Va u so‘zlovchi miyasida yaxlit holda muhrlangan bo‘lib, nutqda doimo bir ko‘rinishda, ya’ni barqaror bo‘lib qo‘llaniladi. Tarkibidagi so‘zlarning to‘la yoki qisman ko‘chma ma’noda ishlatilishiga ko‘ra FBlar quyidagi uch guruhga bo‘linadi:

1. FB tarkibidagi barcha so‘zlar to‘la ko‘chma ma’noda keladi.

Masalan: خر تو خر *‘betartib’*

2. FB tarkibidagi komponentlardan biri o‘z mustaqil ma’nosini yo‘qotadi, qolgan komponentlar esa o‘z ma’nosini saqlab qoladi.

Masalan: جانماز آبکش *‘taqvodor, xudojo ‘y’*

3. FB tarkibidagi barcha so‘zlar o‘z mustaqil ma’nosini saqlab qoladi.

Masalan: تيره و تار *‘ira-shira’ (bulutli)*¹⁰

FBlar sintaktik qurilishi jihatidan birikma yoki gapga teng bo‘ladi. FBda birikmaning, gap shaklining ma’lum bir qolipi doimiy tarkibiy qism sifatida leksemalar va morfemalar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Birikmaga teng qurilishli ot frazeologizmlaritayanch a’zo asosida tasnif qilinadi. Bunda tayanch a’zo birikma tarkibidagi ahamiyati bilan aniqlanadi. OFlar tarkibidagi tayanch a’zo frazeologik birlikning tilda yaxlit birlik sifatida qo‘llanilishi, shu bilan uning aniq grammatik xususiyatlari ifodalanishi bilan aniqlanadi. Shunday qilib, birikmaga teng OFlarda

⁹Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari. - T., 1993 B.19. .

¹⁰Рубинчик Ю. Основы фразеологии персидского языка. - М., В.1981.

tayanch soʻz qanday grammatik guruhga tegishligiga koʻra ot, feʻliy va bogʻlovchiliga ajratiladi. Har bir ajratilgan tur frazeologizmlar tarkibini birlashtirib, leksik tarkib va grammatik vositalarini hisobga olinishini taqozo etadi.

Tayanch aʼzosi ot, sifat yoki boshqa otlashgan soʻz bilan ifodalangan birikmaga teng boʻlgan frazeologizmlar orasida ot frazeologik birikmalar alohida oʻrinni egallaydi. Ular nominativ vazifa bajaradi. OFlarning sintaktik qurilishi erkin birikmaga teng boʻladi, tarkibi ikki va undan ortiq ismiy soʻz turkumiga mansub soʻzlardan tashkil topadi va erkin birikmalardan oʻzining frazeologik xususiyatlari bilan farqlanadi. Ot frazeologizmlari deganda, otlashgan frazeologik birlik tushuniladi.

OFlarning asosiy xususiyati leksem tarkibning doimiyligi, oʻzgarmasligi, maʼno turgʻunligi, komponentlarining leksik sinonimlar bilan qoʻllanilishi cheklanganligi, grammatik qurilish va tarkibiy qismlar orasidagi grammatik bogʻlanish vositalarining turgʻunligi bilan belgilanadi. Shu asnoda OFBlar soʻzlar singari nutqda tayyor birlik sifatida qoʻllaniladi¹¹.

OF komponentlarini bogʻlab turuvchi grammatik vositalarga koʻra izofali, old koʻmakchili, kopulyativ, bitishuvli va old koʻmakchi birikma boshida kelgan frazeologik birliklarga boʻlinadi.

Tadqiqot davomida frazeologik birliklarning tarkibi va sintaktik bogʻlanishiga koʻra quyidagi modellari aniqlandi:

1.1. Izofalifrazeologik birliklar

Izofali OFlar dariy tilida keng tarqalgan FBlarning sermahsul struktur turidir. Izofali birikish eroniy tillarga xos grammatik usul boʻlib, komponentlar izofa deb nomladigan qisqa- “e” tovushi vositasida oʻzaro bogʻlanadi. Izofali OFlar dariy tili tizimida mavjud boʻlgan izofali soʻz birikmlar modellarini oʻzida toʻliq aks ettiradi. Izofali OFlar komponentlar soniga qarab ikki guruhga boʻlinadi: a) ikki tarkibli izofali FBlar va b) koʻp tarkibli FBlar.

¹¹Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка.-М.,Наука,1981.С.8-112.

1.1.1. Ikki tarkibli izofali FBlar yordamchi soʻzlarsiz ikki mustaqil komponentlarning –“e” izofali bogʻlamasi vositasida tashkil topadi. Ushbu soʻz birikmalarining ikkinchi komponenti ot, sifat, sifatdoshlar orqali ifodalanadi:

Ot+ot modeli:

آب چشم *'ko 'z yoshi'*

آب مرورید *'med.katarakta kasalligi'*

آرام دل *'yupatuvchi, dil oromi'*

بازار خاک *'inson badani, so'zma-so'z:tuproq bozori'*

بوتی خاک *'inson badani, so'zma-so'z:tuproq bozori'*

باد نوا *'behuda'*

سنگ راه *'to 'siq', 'qiyinchilik', 'mashaqqat'*

قفس سینه *'ko 'krak qafasi'*

زهر مار *'razillik', 'yaramaslik'*

زن سعدی *'yengiltak ayol'*

دختر سعدی *'yengiltak ayol'*

روی ماه *'sohibjamol', 'oy yuzli'*

روز قیامت *'qiyomat kuni'*

روز حشر *'qiyomat kuni'*

راز خاک *'yerda o 'sadigan o 't'*

نور چشم *'ko 'zning oqu qorasi'*

گردش فلک *'taqdir', 'peshona'*

گل قاصدی *'qoqi o 't'*

جلاد فلک *'osmon jallodi', 'Mars'*

ولد زنا *'nikohsiz tug 'ilgan farzand'*

شهر نرت *'jahannam'*

چشم روز *'oftob'*

دل سنگ *'berahm', 'shavqatsiz', 'bag 'ritosht yurak'*

دق دل *'ranj', 'qayg 'u', 'nafrat', 'adovat'*

Izofali OFBlarga otlashgan frazeologizmlar bilan bir qatorda sifatlashgan va ravishlashgan FBlar ham kiritiladi:

ot+sifat modeli:

جنگ سرد 'sovuq urush

سحن معقول 'maqbul so 'z'

جنس لطيف 'nozik jins', 'ayol'

چشم بد 'yomon ko 'z', 'ko 'z tegish'

چشم شور 'yomon ko 'z', 'ko 'z tegish'

بخت بد 'baxtiqaro', 'sho 'rpes'hona', 'baxtsiz'

بخت سياه 'ayanchli taqdir', 'baxtsiz', 'baxtiqaro'

بخت پریشان 'ayanchli qismat'

بخت سرکش 'ishining o 'ngidan kelmasligi', 'taqdirning bevafo'ligi'

آب سفید 'bokira qiz'

سال نو 'yangi yil'

جمله مرکب 'qo 'shma gap'

سر کج 'pushaymon', 'xafa'

دل خونین 'bag 'ri qon', 'o 'ta g 'amli'

دل نازک 'nozik tabiatli', 'hissiyotga beriluvchan'

دست پیش 'gadoy'

ذکر جمیل 'obro 'li', 'yaxshi nom', 'kimdir haqida yaxshi gapirish'

گرگ پیر 'otilgan bedana (so 'zma-so 'z.qari bo 'ri)'

تباشیر هندی 'bambuk', 'bambuk qamishi'

خاک سرخ 'qizil oxra (gul nomi)'

گولی نمکی 'yoqimtoy'

ot+o'tgan zamon sifatdosh modeli:

دختر ترشیده 'qari qiz'

شلیک خنده 'guldiros kulgi'

آدم رسیده 'keksaodam'

آدم نادیده 'ochko 'zodam'

ot+qo'shma fe'lning o'tgan zamon sifatdoshi modeli:

خرس تیرخورده 'g 'azablangan', 'jaxldor odam'

ot+hozirgi zamon sifatdoshi modeli:

‘pista’, ‘kulayotgan lablar’, ‘shoir’

sifat+ot modeli:

‘inson, so ‘zma-so ‘z:eng oliyjanob inson’

ravish+ot modeli:

‘qiyomat qoyim kuni’

ravish+sifat modeli:

‘tong yorishgan payt’, ‘tonggi shafaq’

ravish+olmosh modeli:

‘undan ham yaxshi’, ‘nur ustiga a’lo nur’

2.1.2. Uch tarkibli izofali FBlar:

ot+ot+ot modeli:

‘yerda o’sadigan o’t’

‘yolg’on va’dalar’

‘qurib ketsin shu ish’, ‘jin ursin’

‘sergap odam’, ‘ezma’, ‘vaysaqi’

ot+ot+sifat modeli:

‘sirdosh’, ‘sir saqlay oladigan odam’

‘tuzoq’, ‘qarmoq’

ot+son+ot modeli:

‘ikki ko’z qorachig’i’, ‘farzand’

ot+ot+o’tgan zamon sifatldoshi:

‘ikkiyuzlamachi’, ‘munofiq’

ot+ot+egalik qo’shimchasi modeli:

‘jin ursin’

ot+ot+bog’lovchi+ot modeli:

‘yaramas’, ‘jirkanch’, ‘razil’

1.2. Old ko’makchili birikma boshida kelgan FBlar

Bunday modellarda old ko’makchilarningizofali va izofasiz turi farqlanadi.

[ba], [dar], [az], [bâ] asosiy old ko’makchilar yordamida izofasiz old ko’makchili

OFBlar, [sar-e], [tu-ye], [pêš-e], [zêr-e], [rô-ye], [barâ-ye] singari izofali old ko‘makchilardan izofali old ko‘makchili OFBlar hosil qilinadi.

1.2.1. Old ko‘makchi birikma boshida kelgan ikki tarkibli FBlar:

old ko‘makchi+ot+ot modeli:

‘chin yurakdan’ از صمیم قلب

‘to‘ng‘izdan bir tuk’ از خوک موی

‘ma‘lum bo‘lishicha’ از قرار معلوم

‘qiyinchilik bilan’, ‘zaxmatda’ با خون دل

old ko‘makchi+olmosh+ot modeli:

‘shuningdek’ از این جمله

‘yaqin fursatlarda’, ‘yaqin vaqt ichida’ به همین زودیها

old ko‘makchi+ot+sifat modeli:

‘oddiy ko‘z bilan’ با چشم بی اسلا

‘chaqasiz’ با جیب خالی

old ko‘makchi+ot+undov so‘z modeli:

‘har ehtimolga qarshi’, ‘qiyinchilik kunlari’, برای روز مبادا

old ko‘makchi+ot+o‘tgan zamon sifatdoshi modeli:

‘nafasi ichiga yutib’, ‘tin olmay qotib’ با نفس دوزدیده

old ko‘makchi+ot+old ko‘makchi+ot modeli:

‘hammasi’, ‘barchasi’, ‘boshidan oxirigacha’ از سیر تا پیاز

old ko‘makchi +ot+izof.old ko‘makchi+ot modeli:

‘xudo haqi’ به خدا بالای سر

1.2.2. Old ko‘makchi birikma boshida kelgan uch tarkibli FBlar:

old ko‘makchi+ot+ot+ot modeli:

‘arzimagan pulga’, ‘tekinga’ با قیامت آب جوی

old ko‘makchi+ot+ot+ot+egalik affiksi modeli:

‘otasining xuni’ به قیامت خون پدرش

1.2.3. Izofali old ko'makchi birikma boshida kelgan bir, ikki va uch tarkibli FBlar:

izofali old ko'makchi+ot modeli:

پیش رو *'ko 'z oldida', 'qarshisida'*

سر پا *'oyoqda', 'tikka', 'tezda'*

زیر لب *'past ovozda', 'pichirlab'*

دل (ی) تو *'xayolda', 'ichida'*

izofali old ko'makchi+olmosh modeli:

پیش خو *'ichida', 'xayolan'*

izofali old ko'makchi+ot+ot modeli:

مثل کورس ماه *'uzukka ko 'z qo 'ygandek'*

izofali old ko'makchi+ot+ot+ot modeli:

مثل برج زهر مار *'g 'azablangan', 'achchiqlangan', 'quturgan'*

old ko'makchi+ot+bog'lovchi+ot modeli:

بدون تکلیف و تکلف *'betakalluf', 'tortinmasdan', 'bemalol'*

1.3. Old ko'makchili frazeologik birikmalar:

نسل به نسل *'nasldan naslga'*

پنهان بر خدا *'xudo asrasin', 'xudo ko 'rsatmasin'*

درجه به درجه *'asta sekin', 'oz ozdan'*

خاک به سر *'baloga giriftor bo 'lgur', 'kafansiz ketgur'*

پدر بر پدر *'avloddan avlodga'*

چکمه به گردن *'kechirim so 'rab'*

دهان به دهان *'og 'izdan og 'izga'*

شیر به شیر *'birin-ketin', 'ketma-ket'*

مو به مو *'batafsil', 'mukammal', 'ipidan ignasigacha'*

ot+old ko'makchi+olmosh modeli:

دفاع از خود *'o 'zini o 'zi himoya qilish'*

ot+old ko'makchi+ot modeli:

مار در پیراهن *'ilon qo 'ynida saqlagan'*

ot+izofali old ko‘makchi+ot modeli:

آب زیر گاه ‘ayyor’, ‘ayyor odam’

ماسکه ضد گاز ‘protivogaz’

sifat+old ko‘makchi+ot modeli:

دور از ذهن ‘tushunish qiyin’

sifatdosh+old ko‘makchi+ot modeli:

مقرون به حقیقت ‘haqiqatga yaqin’

ot+old ko‘makchi+ot+ot modeli:

وسم بر ابروی کور ‘behuda harakatlar’

1.4. Kopulyativ frazeologik birikmalar.

Dariy tilida kopulyativ OFBlarning model yasovchi tarkiblarini aniqlashdan avval, ularga muvofiq keladigan kopulyativ qo‘shma so‘zlar bilan o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi hamda zid holatlarni o‘rganishga harakat qilamiz.

Dariy tilida kopulyativ OFBlar vaqo‘shma so‘zlar tarkibini bir turdagi grammatik vosita [و] bog‘lovchisi birlashtiradi. Struktur tarkibiga ko‘ra kopulyativ FBlar faqat mustaqil shakllangan leksemalar asosiga qurilgan bo‘ladi. Kopulyativ qo‘shma so‘zlar esa ko‘pincha leksik-semantik va sintaktik mustaqil bo‘lmagan so‘zlardan (taqlidiy so‘zlar شلپ و شلوپ ‘shalloplash’, ‘shapillash’ yoki biri mustaqil, ikkinchisi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan komponentlar) fe’lning hozirgi va o‘tgan zamon negizlari پخت و پز ‘pishirish’, ‘tayyorlash’ asosiga quriladi, ba’zi turlarda faqat mustaqil komponentlar (و نقلحمل ‘transport’, ‘transportirovka’ ‘tashish’) hamuchraydi¹². Demak, har ikki birlikni bog‘lovchi birinchi holat ularning tarkibiy qismlaridir. Lekin ta’kidlash kerakki, struktur jihatdan FBlar tarkibi faqat mustaqil so‘zlarni tashkil etadi.

Ikkinchi holat kopulyativ FB vaqo‘shma so‘zlarning fonetik xususiyatlarida ifodalanadi. Masalan, [و] bog‘lovchisi kopulyativ FBlarda o‘zining fonetik talaffuzini saqlaydi, kopulaytiv qo‘shma so‘zlarda bundan farqli, uning boshqa

¹² Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. -М., Наука, 1981. С.75-94

fonetik variantlari [e], [vo], [yô] yoki [â], [vâ] interfksi bilan birikkan holatlari kuzatiladi:

Kopulyativ OFB **سر و همسر** 'oila', 'oila a'zolar', 'yaqinlar', 'do'stlar'; **qo'shma so'z-** **شو و شست** 'yuvisht', 'kir yuvisht'; **رفته و شسته** 'tozalangan', 'saranjom-sarishta', 'ozoda' kabi. Shuningdek, kopulyativ FBlar ikki urg'uli, kopulyativ murakkab so'zlar bir urg'uli xususiyatga ega.

Ot+bog'lovchi+ot modeli:

فکر و ذکر 'fikr', 'niyat', 'o'y'

سن و سال 'yosh'

صلح و مصالحه 'murosa', 'kompromiss'

سر و زبان 'notiqlik', 'gapdonlik'

سر و ریخت 'qiyofa', 'tashqi ko'rinish'

شب و روز 'kecha-yu kunduz', 'doimo'

دست و بال 'tevarak atrof'

خواب و خیال 'puch xayol'

sifat+bog'lovchi+sifat modeli:

زبر و زرنگ 'serg'ayrat', 'chaqqon' 'zukko', 'topqir'

مختصر و مفید 'qisqa va lo'nda'

ot+bog'lovchi +ot+sifat modeli:

شیر و خورشید سرخ 'Qizil Xoj Jamiyati'

ravish+bog'lovchi+ravish modeli:

امروز و فردا 'yaqin kunlarda'

sifatdosh+bog'lovchi+sifatdosh modeli:

نتراشیده و نخراشیده 'qo'pol', 'beso'naqay', 'qovushmagan'

1.5. Bitishuvli FBlar:

son+ot modeli:

یک عمر 'butun umr'

یک دنیا 'bir dunyo', 'serob', 'juda ham ko'p'

olmosh+ot modeli:

‘men’, ‘kamina’ ين جانب

‘siz’, ‘janoblari’ آن جانب

‘bir oz muddat’ چند زمانی

olmosh+son modeli:

‘har qaysi’, ‘har biri’ هر يك

son+ot+ot modeli:

‘ko’p pul’, ‘katta pul’ يك دنيا پول

‘katta umid’ يك دنيا اميد

1.6. Aralash turdagi OFBlar:

ot+olmosh+ot modeli: izofali va bitishuvli bog‘lanish:

‘mahmadona’, ‘har narsaga burnini tiqadigan odam’ ماش هر آش

ot+son+ot modeli: izofali va bitishuvli bog‘lanish:

‘nuri diyda’, ‘farzand’ نور دو چشم

ot+ot+bog‘lovchi+ot modeli: izofali va kopulyativ bog‘lanish:

‘yaramas’, ‘jirkanch’, ‘razil’ زهر مار نرنر

ot+sifat+bog‘lovchi+ot modeli: izofali va kopulyativ bog‘lanish:

‘novcha’, ‘davanqirday odam’ گل بی شاخ و دوم

ot+bog‘lovchi+ot+ot modeli: kopulyativ va izofali bog‘lanish:

‘jamiyatning guli’, ‘jamiyatning eng yaxshi namoyondalari’ چشم چراغ زمین

ot+bog‘lovchi+ot+sifat modeli: kopulyativ va izofali bog‘lanish:

‘tantiqlik’, ‘noo’rin taltayish’ ناز و غمزه شتری

ot+ot+o’tgan zamon sifatdoshi modeli: izofali va bitishuvli bog‘lanish:

‘ikkiyuzlamachi’, ‘munofiq’, ‘riyokor’ مؤمن مسجد ندیده

ot+old ko‘makchi+ot+ot modeli: old ko‘makchili va izofali bog‘lanish:

‘riyokor’, ‘ikkiyuzlamachi’ گرگ در لباس میش

ko‘rsatish olmoshi+ot+bog‘lovchi+ko‘rsatish olmoshi+ot modeli:

bitishuvli va kopulyativ bog‘lanish:

‘har xil joylarda’, ‘turli burchaklarda’ این طرف و ان طرف

'hamma joyda', 'hammayoqda' این در و آن در

1-bob yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Dariy tilidagi ot frazeologizmlarining quyidagi modellari mavjud:

- a) **ot+ot** (*'ko 'z yoshi'*); آب چشم
- b) **ot+sifat** (*'sovuq urush'*); جنگ سرد
- c) **ot+old ko'makchi+ot** (*'nasldan naslga'*); نسل به نسل
- d) **ot+bog'lovchi+ot** (*'fikir', 'niyat', 'o 'y'*); فکر و زکر
- e) **ot+ ot+ot** (*'yolg'on va 'dalar'*); حواله سر حرمان
- f) **ot+ot+sifat modeli** (*'tuzoq', 'qarmoq'*); دار باغ سبز
- g) **old ko'makchi+ot+ot** (*'chin yurakdan'*); از سمیم قلب
- h) **old ko'makchi+ot+sifat** (*'oddiy ko 'z bilan'*); با چشم بی اسلا
- i) **ot+izofali old ko'makchi+ot modeli** (*'ayyor', 'ayyor odam'*); آب زیر کاه
- j) **sifat+bog'lovchi+sifat modeli** (*'qisqa va lo 'nda'*); مختصر و مفید
- k) **son+ot** (*'butun umr'*); یک عمر
- l) **olmosh+ot** (*'men', 'kamina'*); این جانب
- m) **ot+olmosh+ot modeli: izofali va bitishuvli bog'lanish modeli** ماش هر (*'mahmadona', 'har narsaga burnini tiqadigan odam'*); اش

2. Old ko'makchi birikma boshida kelgan FBlar kirish so'z bo'lib qo'llaniladi:

'shunday qilib' از این قرار, *'shuningdek'* از این جمله

3. Kopulyativ FBlar bir so'z turkumiga mansub bo'lgan (ko'pincha ot va sifat) mustaqil ma'noli binar so'zlardan tashkil topib, ikki komponenti ham alohida urg'uğa ega bo'ladi:

'qisqa va lo 'nda' مختصر و مفید

Kopulyativ qo'shma so'zlar esa leksik-semantik va sintaktik jihatdan bir yoki ikki komponenti mustaqil ishlatilmaydigan so'zlardan iborat bo'ladi va urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi:

'shalloplash', 'shapillash' شلپو شلوپ

Lekin kopulyativ qo'shma so'zlar kop hollarda mustaqil leksik ma'noga ega so'zlardan tashkil topishini inkor etib bo'lmaydi:

امروز تا فردا 'yaqin kunlarda'

Kopulyativ FBlar ham, kopulyativ qo'shma so'zlar ham semantik jihatdan ko'chma ma'noga ega. Bu esa ularni birlashtirib turuvchi asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi.

4. Bitishuvli FBlar olmosh yoki sanoq sonlar bilan otlarning birikuvidan tashkil topadi. Bitishuvli FBlar qurilishi jihatidan qo'shma so'zlarning determinativ tipi bilan mos keladi. Qo'shma determinativ so'zlarda urg'u ikkinchi komponentning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Bitishuvli FBlarda esa har komponenti o'z urg'usiga ega bo'ladi. Lekin bunday yasaliş dariy tilida yetarlicha o'rganilmagan:

ایک دنیا 'bir dunyo', 'serob', 'juda ham ko'p' – bitishuvli FBning har bir komponenti alohida urg'u oladi va mustaqil so'zlardan tashkil topgan.

اینطور 'shunday', 'shunday qilib' qo'shma determinativ so'z bo'lib, birinchi komponent ikkinchi asosiy urg'uli komponentga bog'liq bo'ladi. این olmoshi mustaqil qo'llaniladi, ammo طور bundan mustasno. Bu ham bitishuvli FBlarni qo'shma determinativ so'zlardan farqlashning bir belgisi hisoblanadi.

IKKINCHI BOB

DARIY TILIDA OT FRAZEOLOGIZMLARI VA ULARNING LEKSIK VARIANTLARI

2.1. Ot frazeologizmlarida variantlanish

Variantlanish frazeologizmlarning eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Turli ko'rinishlarda namoyon bo'lish fonemaga (allofonemalar), leksemaga (allosemalar), morfemaga (allomorfemalar) xos. Variantlanish frazemalarda boshqa lisoniy birliklardagidan ko'ra ko'p uchraydi (frazemalarning deyarli yarmiga xos); chunki frazema murakkab qurilishli bo'lib, turli-tuman o'zgarishlar uning tarkibidagi leksemalarda ham, morfemalarda ham yuz beradi¹³. 'Miyaning til xotirasi qismidagi ramzda frazeologik birlik qanday leksik variantlariga ega ekanligi haqida axborot bo'ladi, ularning leksik variantlari ana shu axborot asosida tuzilib, nutqqa ma'lum bir grammatik shakllangan holda kiritiladi.

Variantlanish dariy tili frazeologik fondini boyituvchi eng muhim manbalardan biridir. Frazeologizmlar komponentlarining u yoki bu so'zga almashtirilishi asosida o'zaro yaqin ma'noli frazeologizmlar shakllanadi. Bunda, asosan, shakl o'zgaradi, ma'no esa deyarli o'zgarmaydi. Leksik va struktur-grammatik o'zgarishlar asosida hosil bo'lgan frazeologizmlar tilshunoslikda frazeologik variantlanish va frazeologik sinonimiya deyiladi. Ammo frazeologik variantlanish va frazeologik sinonimiya hodisalarini bir-biridan aniq farqlash lozim.

Biz bilamizki, frazeologik sinonimiya deganda, bir ma'noni ifodalovchi turli strukturali frazeologizmlar nazarda tutiladi. Bunda har bir sinonim frazeologizm turli obrazlarda shakllanadi va ularda umumiy so'z komponent ham bo'lmaydi. Sinonim frazeologizmlar umumtil frazeologizmlari asosida emas, balki til frazeologik shakllanish tizimi asosida, turli doiralarda, lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida yuzaga keladi.

¹³Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -T., 2006.B.421.

Frazeologik variantlanish esa umumtil frazeologizmlari asosida yuzaga keladi va ular ma'lum frazeologizmga asoslanadi yoki tilda mavjud bo'lgan frazeologizmlardan o'sib chiqqan bo'lib, turli obrazlarda shakllanadi va ularda umumiy so'z komponent mavjud bo'ladi.

Shu ma'noda frazeologik variantlanish umumtil frazeologizmlari asosida yangi frazeologizmlarning shakllanish sistemasiga kiradi.

Frazeologik variantlanish o'ta mahsuldor bo'lib, aksariyat frazeologizmlarning varianti uchraydi. O'zbek tilshunosligida ham frazeologik variantlanish hodisasi chuqur o'rganilgan bo'lib, Sh.Rahmatullayev frazeologik sohada variantlanish muammosini o'rta qo'ydi¹⁴. Olim frazeologik variantlanishni frazeologik sinonimiyadan farqlashga alohida diqqat qiladi. Uning talqinicha, har qanday farzemani frazeologik variant deyish uchun quyidagi belgilar inobatga olinishi lozim:

1) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar turli-tuman leksik, grammatik o'zgarishlar tufayli biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'lishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi lozim;

2) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar asosida ayni bir obraz yotishi lozim (bu obrazning variantlarga ko'ra so'nish-so'nmasligidan, qay darajada o'qilishidan qat'iy nazar);

3) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar ayni bir ma'noni anglatishi lozim (ular o'zaro ma'noning kuchli-kuchsizligida, nutqiy, stilistik belgilarida farq qilishi mumkin);

4) o'zaro o'sib chiqqan variantlar qurilishida umumiy leksik komponent bo'lishi shart (ikki va undan ortiq frazeologizmning qurilishida umumiy leksik komponentning mavjud bo'la olishidan qat'i nazar)¹⁵.

Demak, frazeologik variantlar asos frazeologizmlarning bir ko'rinishi bo'lib, ma'nolari, stilistik va sintaktik vazifalariga ko'ra, aynan o'xshash, leksik tarkibida qisman o'zgarishi bo'lgan, ayni bir obraz asosida yotuvchi til birligidir.

¹⁴G'aniyeva Sh. Sh.Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar haqidagi qarashlari maqolasi.Tilshunoslikning dolzarb masalalari. T.,2015.B.48.

¹⁵ Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari.-T,1996.B.145.

Variantlanish turlicha ko'rinishda bo'lib, asos frazeologizmning ayrim komponentlari o'zgaradi. Frazeologizmlarning har qanday komponenti variantlanishi mumkin.

Umuman, Sh.Rahmatullayev ta'kidlaganidek, variantlanish tufayli bir frazeologizm boshqa bir frazeologizmga aylanmaydi, bir frazeologizmga xos obraz birligi saqlanadi. Variantlanish tufayli yuz beradigan o'zgarishlar frazeologizmlarga xos yaxlitlikni yemirmaydi, parchalamaydi, balki frazeologizmga xos yaxlitlik doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda yo frazeologizm yo'qqa chiqadi, yoki boshqa frazeologizm barpo qilinadi¹⁶.

Demak, frazeologik sinonimlar umumiy mundarijasi bilan birlashib tursa ham, semik strukturasi nuqtai nazaridan farqlanadi. Sinonim va variantdosh frazeologizmlarning komponentlari o'zaro o'xshash bo'lganligi uchun ularni farqlash qiyin. Ular yoki ma'no darajasi bilan, yoki baho semasining mavjud emasligi bilan, yoki ma'lum uslubga xoslanishi bilan, yoki hududiy chegaralanishi bilan bir-biridan farq qiladi. Shunindek, bular orasidagi asosiy farqlardan birini obrazlilik belgilaydi. Frazeologik sinonimlar aynan yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni turli obrazlar yordamida ifodalaydi. Frazeologik variantlar esa shunday tushunchalarni bir obraz yoki bir-biriga yaqin obrazlar yordamida ifodalaydi.

Shunday qilib, frazeologik variantlanishning quyidagi belgilari mavjud: obrazning umumiyliigi; denotativ va signifikativ ma'nolarining umumiyliigi; tildagi vazifalari va kategorial (leksik-grammatik) ma'nolarining mos kelishi; umumiy so'z komponentining mavjud bo'lishi. Dastlabki uch belgi bular ichida shartlilik kasb etadi. Keyingilari esa fakultativ xarakterga egaligi bilan xarakterlanadi.

Qayd etish lozimki, tilshunoslikda variantlanishning belgilarini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, A.V.Kunin, I.I.Chernisheva, V.M.Mokienko, A.G.Nazaryanlar asosiy e'tiborni variantdor frazeologizmlarning

¹⁶ G'aniyaeva Sh. Sh.Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar haqidagi qarashlari//Tilshunoslikning dolzarb masalalari.- T.,2015.B.448-49.

ma'no umumiylikiga qaratadilar¹⁷. N.M.Shanskiy va L.M.Boldireva, I.A.Feodorovlar frazeologik variantlar tarkibi va tuzilishi u yoki bu tarzda o'zgarishiga uchrab, stilistik va ekspressiv xususiyatlari bilan farqlanishini ta'kidlaydilar. V.N.Teliya esa variantdor frazeologizmlar signifikativ ma'nolari bilan farqlanishini ko'rsatadi. A.I.Fedorov esa variantdor frazeologizmlarning komponentlari grammatik va fonetik formalari bilan farqlanishini ta'kidlaydi. A.V. Kunin, I.A. Fedosovlar komponent tarkibning qisman o'zgarishi natijasida leksik invariant (umumiy so'z komponent) ning mavjud bo'lishini uqtiradilar. Turli xil fikrlar bo'lishiga qaramasdan, deyarli barcha tilshunoslar frazeologik variantlarda obrazlarning umumiy bo'lishini e'tirof etadilar¹⁸.

Demak, frazeologizmlarning variantdorlikka tegishlilikini farqlashda, ularning aynan ma'no o'xshashligiga, tarkibining bir tipligi va birikmaning ichki birligi (obrazligi)ga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Shu belgilarga ko'ra, frazeologik variantlarni bir-biridan farqlash mumkin bo'ladi. Ichki bog'liqlik frazeologik variantlarning hosil bo'lishida asosiydir.

Frazeologizmlarning variantdorligini o'rganish jarayonida "variant" va "invariant" tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim bo'ladi. Frazeologizmlarning variant yoki invariant ekanligi ularning iste'moldagi qo'llanilishida ko'rinadi. Qaysi frazeologizm badiiy asar tilida yoki so'zlashuvda ko'p qo'llansa, ularni invariant deb atash mumkin. Frazeologizmlarning variantlarini farqlashda obrazlikdan tashqari, ma'noning farqlari va o'xshashliklari, almash qo'llanilgan komponentning invariant komponentga nisbatan stilistik va grammatik qarashlilik masalalari ham muhimdir. Dariy tilida frazeologizmlarning tarkibida bir komponentni almash qo'llash asosida frazeologik variantlar shakllanadi: Masalan,

'chin yurakdan' از صمیم دل = از صمیم قلب

'sovuq urush' جنگ سرد = جنگ زبانی

'yolg'on va dalar' حواله سرخرمن = وعده سرخرمن

¹⁷Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: filol. fanlari doktori dissertatsiyasi – T., 2000.

¹⁸Ko'rsatilgan asar.B.256.

‘*yurak ranji*’ رنج دل = زحمت دل
‘*kechaning pirandozasi*’ پاسی از شب = ساعتی از شب
‘*baxtiqaro, sho‘r peshona, bechora*’ بخت پریشان‌بخت بد =
(1: 69) بخت بد از صبح تا شام دوندگی می‌کند...

‘*Bechora erta-yu kech mehnat qiladi...*’

Yuqoridagi misollarda FB tarkibidagi bir komponentni boshqa bir so‘zga almashtirish orqali yasalgan frazeologik variantni ko‘rdik.

Ammo,

‘*qabr, mozor g‘ori, qabriston*’ خاکمزار = وادی خاموشان

‘*o‘lim payti*’ دم مرگ = حالت نزع

‘*yurak sirlari*’ اسرار قلبی = رازهای دل

‘*nahang*’ شیر دریا = ماهی کوسه

‘*maqbul so‘z*’ حرف حسابی = سخن معقول

‘*obi-havo*’ آب و هوا = اوضاعی جوی

(1: 15) عاقبت منزل ماوادی خاموشان است

‘*Bizning so‘nggi manzilimiz- o‘liklar vodiysidir*’

kabi frazeologizmlarda esa ma’no saqlangan holda barcha komponentlar almashtiriladi. Birinchi turkumda frazeologik variantlar shakllansa, ikkinchi turkumda esa frazeologik sinonimlar shakllandi. Ko‘rinadiki, bunda obrazlar va leksik tarkibning turlichaligi ularni bir-biridan farqlaydi.

2.1.1. Leksik variantlar

Leksik variantlar frazeologizmlarning shakllanishida muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ibora tarkibida mustaqil so‘z turkumi bilan ifodalangan komponenti o‘zgartirib hosil qilingan variantga leksik variant deyiladi. Bunda frazeologizmning u yoki bu komponenti biror boshqa so‘zga almashtirilishi mumkin. Shuningdek, muayyan komponentlar qo‘shilishi yoki tushirilishi hollari ham yuz beradi. Frazeologizmning ma’lum bir komponenti boshqa so‘zga almashtirilgan hollarda ko‘pincha komponenti teng miqdorli frazeologik variantlar hosil bo‘ladi. Ba’zi hollarda esa aksincha, komponentlar tarkibining miqdori teng

bo'lmaydi. Bunday variantlarni leksik-grammatik variantlar deb ataymiz. Chunki uchinchi komponentning qo'shilishi variantning grammatik qurilishida o'zgarishlarga olib keladi.

Shuningdek, frazeologik variantlarning almashtirilishida nafaqat bir, balki ikkita komponent ham almashtirilishi mumkin. Bunda ba'zi variantlar umumiy komponentga ega bo'ladi, ba'zilari esa bundan mustasno. Ya'ni umumiy so'z komponent bo'lmaydi. Masalan,

وعدہ سر خرمن = حوالہ سر خرمن = حوالہ روی یخ = برت روی یخ

'yolg'on va'dalar'

Ushbu FBlarda وعدہso'zi va حوالہ so'zlari bilan variantdosh bo'lib kelgan.

bert روی یخ bilan وعدہ سر خرمن FB lari bir ma'noni bersa ham, komponentlarining butunlay farqlanishini kuzatishimiz mumkin.

همه وعدہ های احوالہ سر خرمن است

'Uning barcha va'dalari yolg'on edi'(3:85)

Ba'zi hollarda, FB tarkibidagi fe'l-kesimning tushirilib qolishi, ya'ni yashirin-ellipsis hodisasini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan,

to'ng'izdan bir tuk' از خوک موی (کندن)

kuygani ustiga namakob (sepmoq)' بالای سوخته نمک آب (پاشیدن)

irg'iydigan taxta(bo'lmoq)' تخته خیز (شدن)

qattiq harakat' بذل ساعتی (نمودن)

Frazeologizmlar komponentlarining leksik variantlanishi frazeologizmlarni boshqa til birliklaridan, jumladan, gaplardan farqlaydi. Hech bir gap ma'lum matn tarkibidagi u yoki bu so'zning almashtirilishiga yo'l qo'ymaydi. Chunki tarkibidagi so'z boshqa so'zga almashtirilsa, gapga xos ma'no butunlay o'zgarib ketadi. Frazeologizmlarda esa variantlanish asosida ma'no o'zgarmaydi.

Variantlanishni tashkil etuvchi qator frazeologizmlarning komponenti o'rnida qo'llanuvchi leksemalar ham chegaralangan bo'ladi. Demak, har qanday so'z frazeologizmlar komponentlari o'rnida qo'llanavermaydi. Aks holda ma'noga putur yetadi.

Dariy tilida boshqa tillardagidek, grammatik va leksik variantlar kabi turlari farqlanadi. Leksik variantlartilda yangi frazeologizmning paydo bo'lishga sabab bo'ladi. Shakllangan yangi frazeologizm nutqda tayanch frazeologizmlar bilan baravar qo'llanilishi bilan xarakterlanadi.

Leksik variantlar umumtil frazeologizmlari asosida yangi frazeologizmlarning paydo bo'lishitizimiga kiradi. Chunki variantning paydo bo'lishi uchun umumtil frazeologizmlari mantiqiy asos vazifasini o'taydi.

Yuqorida aytganimizdek, leksik variantlar ham leksik qo'shish, leksik tashlash, leksik almashtirish kabi omillar asosida yuzaga keladi. Leksik qo'shishda frazeologizmning semantikasida konkretlikka tomon siljish yuz beradi, konkret bir izoh nuqtasi ortadi. Dariy tilida leksik almashtirish asosida esa ko'plab leksik variantlar, frazeologik shakllanish yuz beradi. Leksik almashtirish jarayonida leksemalar o'zaro sinonim va yaqin ma'noli bo'ladi. Ular orasidagi ma'noviy farqlar ma'noning kuchli va kuchsizligida, stilistik belgida yaqqol ko'rinadi. Masalan, birgina *'yomon kun'* ma'nosini ifodalovchi FBni leksik almashtirish orqali bir qancha variantlarini berish mumkin:

روز سیاه = روز بد = روز مبدا = روز سختی = روز پله

Shuningdek, *'g'am, qayg'u'* ma'nosida kelgan FBning dariy tilida quyidagi leksik variantlari mavjud:

دق دل = اغده دل = زنگ دل = رنج دل = زحمت دل

Leksik variantlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1) **Komponentlari teng miqdorli leksik variantlar**

Ko'p hollarda o'zaro almashtiriladigan FBlar sinonim bo'ladi. Ya'ni birinchi yoki ikkinchi komponentlar o'zaro almashtirilishi mumkin.

a) dariycha so'z dariy tilidagi so'zga almashtiriladi: آرام جان = آرام دل
'oshiq, dil oromi, yupatuvchi'

b) dariycha so'z arabcha so'zga almashtiriladi: نسخه دوم = نسخه سانی:
'ikkinchi nusxa'

c) arabcha so'z arab tilidagi so'zga almashtiriladi:

سازمان ملل متحد = سازمان ملل متفق (BMT) (3:90)

d) dariycha soʻz Yevropadan oʻzlashgan soʻzga almashtiriladi: بالدگو برقی = 'mikrofon' بالدگوی الکتریکی

Lekin baʼzi OFBlarning shunday variantlari borki, ularning oʻzaro almashtiriladigan komponentlari sinonim boʻlmaydi. Bunday FBlarning birinchi yoki ikkinchi komponentlari almashtirilishi mumkin:

سنگ لغزش = سنگ راه 'qiyinchilik, toʻsiq'

چشم بد = چشم شور 'koʻz tegishi'

بخت سیاه = بخت پریشان 'baxtsiz'

سگ آبی = گربه آبی 'suv qunduzi'

این حرف هارا بگذار کنار چه تشکری بهتر از اینکه الحمداللهچشم بد دور چاق و سلامت راه افتاده ای

'Bu gaplaringni qoʻy, Xudoga shukur, koʻz tegmasin, toʻlishib, sogʻayib ketganing menga har narsadan afzalroq' (3:30)

2) Komponentlarining miqdori teng boʻlmagan leksik variantlar

Bunday guruhga faqat komponentlarining miqdori bilan farqlanuvchi, lekin oʻxshash maʼnoli va oʻxshash grammatik qurilishga ega OFBlar kiradi:

a) FB tarkibidagi bir yoki ikki komponentini olib tashlash orqali yasalgan komponentlarining miqdori teng boʻlmagan leksik variantlar:

سازمان ملل متحد = ملل متحد 'BMT'

گل ختمی مجلسی = ختمی مجلسی 'atirgul'

b) Yuqoridagi misollarda FBlarning komponentlaridan birinchisini olib tashlash orqali yasalgan boʻlsa, quyidagi FBlar tarkibidagi ikkinchi komponentni olib tashlash orqali yasalgan: سيب حذرت آدم = 'Odam Ato olmasi'

راز خاك = راز نهان خاك 'metaf. yerda oʻsuvchi oʻt oʻlan'

Misollardan koʻrinadiki, soʻz-komponent tashlashning ham turli koʻrinishlari mavjud. Soʻz-komponent tashlash bilan yuzaga kelgan variant unga asos boʻlgan variantdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: izohlanish imkoniyati ozayadi, frazeologizm anglatadigan lugʻaviy maʼnoni shartli qabul qilish kuchayadi.

2.1.2. Grammatik variantlar

Tilshunos Sh.Rahmatullayev shunday deb qayd etadi: “ Ibra tarkibini grammatik o‘zgartirish bilan hosil bo‘ladigan variantga grammatik variant deyiladi”¹⁹. Grammatik variantlar odatda frazemaning ichki grammatik qurilishida voqe bo‘ladigan o‘zgartirishlar bilan yuzaga keladi²⁰. Eronshunos Abidov M. fors tilidagi grammatik variantlarni morfologik va sintaktik variantlarga ajratadi:²¹

1) Morfologik variantlar

Morfologik variantlar birinchi yoki ikkinchi komponentning shaklini o‘zgartirish orqali yuzaga keladi. Bularga so‘z o‘zgartiruvchi va so‘z yasovchi affikslar kiradi:

a) “ى” suffiksli nisbiy sifat *ين* suffiksli bir o‘zakdan yasalgan nisbiy sifatga almashtiriladi: *گل ابرشمنی = گل ابرشمن* ‘*akas, oq gulli dukkakli daraxt*’

b) birlik shaklidagi ot aynan shu so‘zning ko‘plik shakliga almashtiriladi yoki aksincha: *زلف عروس = زلف عروسان* ‘*xo‘roz toji*’

c) dariy tilidagi ko‘plikdagi ot arab tilidagi so‘zga almashtiriladi :

الغرام.ikki undoshning kelishi = التلاقى ساكنى

d) suffikssiz sifat “ى” suffiksli sifatga almashtiriladi: *راز پنهانی = راز پنهان* ‘*yashirin sir*’

e) ot “ى” suffiksli nisbiy sifatga almashtiriladi:

بeparvolik, beg‘amlik, yolg‘on = خواب خرگوشى

(1:37) *راز پنهانی خود با یار خود چندانکه بتوانی مگو*

‘O‘z siringni imkon boricha do‘stingga ham oshkor qilma’

2) Sintaktik variantlar

Sintaktik variantlar so‘zlar tartibini o‘zgartirish asosida hosil bo‘ladi. Bunday ko‘rinishdagi variantlarni sintaktik pozitsion variantlar deb ham atash mumkin.

¹⁹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologik lug‘ati.-T.,1996.B.3.

²⁰ Rahmatullayev Sh. O‘sha asar.B.2.

²¹ Абидов М. Субстантивные фразеологизмы в современном персидском языке.-М,1988.С.100.

a) izofali birikma kopulyativ birikmaga almashadi, komponentlarning o‘rni almashadi:

گندمنمای جوفروش = جوفروش و گندمنما *‘riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi’*

b) izofali birikma kopulyativ birikmaga almashadi:

کوسه ریشه = کوسه و ریشه *‘ziddiyat, qarama-qarshilik’*

c) izofali birikma saqlangan holda old ko‘makchi qo‘shiladi:

امر معروف = امر به معروف *‘amri ma ‘ruf, muqaddas burch’*

در ظاهر مقدس و جانباز آب کش و در حقیقت داروندارش از تنزیل تومانی ده شاهی و یک قران (3:19) بود و بقول مشهور درستجوفروش و گندم نما بود...

Bir qarashda , u sahovatli va solih edi, lekin aslida har bir tuman uchun yarim rial yoki rial foiz olib, sudxo‘rlik bilan shug‘ullanar edi. Aytganlaridek, bug‘doy ko‘rsatib, arpa sotadi...

3) Morfologik-sintaktik variantlar

Morfologik xususiyatlari bilan farqlanadigan variantlar morfologik variantlar deyiladi. Bunda FB tarkibidagi so‘zning nafaqat morfologik qismini, balki sintaktik bog‘lanishini ham o‘zgartirish asosida variantlanish yuz beradi.

Quyidagi holatlarda morfologik-sintaktik variantlarning yasalishiniko‘rishimiz mumkin:

a) FB tarkibidagi komponentlarning o‘rni almashtirilishi va otning “ی” suffiksli nisbiy sifatga o‘zgartirilishi natijasida:

چتر زلف = زلف چتری *‘peshanajak’*

b) artiklli arab tilidagi ot va لاold ko‘makchi bilan arab tilidagi sifatdoshga o‘zgaradi: حاکم مطلق = حاکم الاعتلاق *‘yagona iloh’*

c) “ی” suffikli nisbiy sifat ‘ba’old ko‘makchili otga o‘zgaradi:

پرداخت نقدی = پرداخت با نقد *‘naqd pul bilan to‘lamoq’*

Umuman, leksik variantlar bilan grammatik variantlarning birgalikda qatnashuvi bilan leksik-grammatik variantlar yuzaga keladi. Bunda leksik variantlarning va grammatik variantlarning ko‘rinishlari har xil kombinatsiyada bo‘ladi.

2.1.3. Leksik-grammatik variantlar

Leksik grammatik variantlar gapdagi komponentlar tarkibi bilan birga, grammatik qurilishi bilan ham farq qiladi. Leksik-grammatik variantlarda frazeologizm tarkibidagi biror komponent boshqa soʻzga almashtirilishi bilan birga FBning ichki qurilishida grammatik oʻzgarishlarni kuzatish mumkin. Leksik-grammatik variantlar bir va koʻp tarkibli boʻlib, ular leksik-morfologik va leksik-sintaktik variantlarga boʻlinadi.

1) Leksik-morfologik variantlar

Bunday variantlar komponentlarning shaklini turli usullar bilanoʻzgartirish orqali yasaladi, yaʼni:

a) birlikdagi ot shu soʻzga sinonim boʻlgan otning koʻplik shakliga oʻzgartiriladi: محرم راز = محرم اسرار *‘ishonchli doʻst’*

ارضى باير = زمين باير *‘ishlanmagan, sugʻorilmagan yer’*

b) otning koʻplikdagi shakli frazeologizm tarkibidagi komponentlari soni bilan farqlanuvchi boshqa otga oʻzgartiriladi:

چراغ دزدها = چراغ خانه دزدها *‘xira yonadigan chiroq’*

2) Leksik-sintaktik variantlar

Bunday variantlar muayyan komponentlarining almashtirilishi, qoʻshilishi, tushirilishi orqali yasaladi, yaʼni:

a) FB tarkibidagi muayyan bir komponent sinonim soʻzga va izofali birikma kopulyativ birikmaga almashtiriladi:

بد سولت = بد و باروت *‘dimogʻdor, takabbur, erkaklarga xos magʻrurlik’*

b) FB tarkibidagi muayyan bir komponent sinonim soʻzga va izofali birikma old koʻmakchiga almashtiriladi.

c) FB tarkibiga muayyan komponentning qoʻshilishi yoki tushirilishi orqali yasaladi va grammatik bogʻlanishida ham farqlanadi:

لقمه چرب و نرم = لقمه چرب *‘totli tishlam, bir burda’*

(3:7) برای کسب یک لقمه چرب نان نزد هر کس و هر ناکسی گردنش را کج میکند

‘Nonning bir burdasi uchun u har kimning oldida past ketadi’

2.1.4. Fonetikvagrafikvariantlar

Yuqoridaqaydetilganleksik, grammatikvleksik-grammatikvariantlardantashqari, otfrazeologizmlariichidao‘zifodasiniyozuvdatopuvchifonetikvariantlarhammavjudbo‘lib, ularnigrafikvariantlarhamdebatasakmaqsadgamuvofiqbo‘ladi. Bundayvariantlarningpaydobo‘lishiarabtiliyo‘zi, shuningdekdariyvaarabtillarifonetiktizimini xususiyatlaribilanbevositabog‘liqbo‘lib,ba‘ziarabiyso‘zlarningdariytiligao‘zlashuvidafarqlanishlarvujudgakelishisababb bo‘lgan.

Ba‘zifonetikvariantlaresadariytilidagiaynanbirso‘zningturlifonetikshakllariishtiroki oqibatidayasalgan.Fonetik va grafik variantlarning quyidagi turlari mavjud:

a) qisqa a va cho‘ziq â almashtirilib yasaluvchi fonetik variantlar:

آب دهن = آب دهن *so‘lak, tupuk*

كوچه خاموشان = كوچه خاموشان *‘qabriston’*

b) گ va ج almashtirilib yasaluvchi fonetik variantlar:

بد رنگبوی = بد رنگبوی *‘yalpiz’*

خار ترنگبین = خار ترنگبین *‘yantoq’*

c) ن va نا (qisqa a va cho‘ziq â bilan)inkor bo‘laklari almashtirilib yasaluvchi fonetik variantlar:

در نسفته = در ناسفته *‘bokira qiz’*

d) arab tili yozuvining turli harflari dariy tilida ham huddi shunday talaffuz qilinishi natijasida yasalgan grafik variantlar. Bunday variantlar faqat yozuvda aks etadi, og‘zaki nutqda farqlanmaydi: ط va ت almashtirilib qo‘llaniladi:

بادیان خطاین = بادیان ختاین *‘bodiyon’*

ص va س almashtirilib yasaluvchi variantlar:

ناز شصت = ناز شست *‘mukofot’*

So‘z so‘ngida ا va ى almashtirilib yasaladi, lekin bir xil o‘qiladi:

ا جنگل ملی = جنگل ملا a) tartibsiz soch turmagi b) shaklsiz massa

e) ت va • almashtirilib yasaluvchi variantlar:

حروف علت = حروف عله 'zaif o 'zakli'

(3:27) این تصنیف را خوب آواز خواند و ناز شستش را گرفت

'Ubuxalqo 'shig 'iniajoyibijroetdivamukofotgasazovorbo 'ldi'

2.2. Ot frazeologizmlarida sinonimiya

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham ko'p uchraydi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi zarur. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi²². Frazeologik sinonimiya (keyinchalik FS) hodisasi tilshunoslarni oldindan qiziqtirib kelgan. Frazeologlar avvaliga frazeologik sinonimiyani ingliz, nemis, fransuz tillaridagi materiallarda o'rganishgan. Keyinchalik rus va sharq tillari frazeologiyasida ham ushbu sohada ishlar boshlangan.

FS mavzusiga doir maxsus ishlar o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan bo'lib, ushbu mavzuda ko'plab maqolalar, monografiyalar yozilgan, dissertatsiyalar yoqlangan. O'zbek tilshunosligida ham professor olim Sh. Rahmatullayevning bu borada qilgan ishlari FB larni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ammo dariy tili tilshunosligida FS bo'yicha deyarli maxsus tadqiqot ishlari qilinmagan.

Yuqorida aytganimizdek, professor Sh. Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar xususidagi qarashlari ham FB lar tadqiqida muhim o'rin tutadi. Olimning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida frazeologik sinonimlar tahlilidan kelib chiqargan quyidagi ilmiy xulolasi har jihatdan asosli: "Har bir frazeologik sinonimga to'g'ri to'liq xarakteristika berish uchun sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlari bilan qiyoslab o'rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalarda tekshiriladi, ular orasidagi farqlar qancha oz bo'lsa, ularni nutqda bir-birining o'rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va aksincha bo'lsa, bunday imkoniyat ozayadi. Qay darajada bo'lmasin, sinonimlarni o'zaro almashtirishga yo'l qo'yuvchi kontekst mavjud bo'ladi. Bunday almashtirish bilan nimadir yo'qotiladi, nimagadir ega bo'linadi. Xuddi ana shu

²²Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.2005.B.222.

‘nimalardir’ sinonim frazeologizmlarning har biriga tilda yashash huquqini beradi”²³.

Sh.Rahmatullayev sinonimiya hodisasini frazeologik sathga tatbiq etar ekan, ma’no ottenkasi, uslubiy bo’yog’iga ko’ra farq qiladigan, atash ma’nosiga ko’ra umumiy bo’lgan frazeologizmlar qatorini sinonimik iboralar deb baholaydi²⁴.

Olim ideografik semalari teng, bir yoki bir necha jihati o’zaro farqli frazemalar (frazosemalar) frazeologik sinonimlar (frazosinonimlar) deyilishini qayd etadi. Masalan, *og’ziga talqon sol-,mum tishla*-frazemalari aynan bir lug’aviy ma’noni *‘mutlaq gapirma, suhbatda mutlaqo qatnashma’* ma’nosini anglatishini bayon qiladi. Sh.Rahmatullayevning ta’kidlashicha, farzeologik sinonimlar uch xil defferensial belgi asosida farqlanadi va shu orqali uch jihatdan baholanadi: a) lug’aviy ma’nosi jihatidan; b) baho semasi jihatidan; c) nutqiy xoslanish jihatidan²⁵.

Birinchi jihatiga ko’ra, umumiy mundarijaga ega bo’lgan sinonimlar ajratiladi. Olimning ko’rsatishicha, frazosinonimlar ko’pincha ma’no sinonimlari (ideografik sinonimlar) bo’ladi: *burnini ko’tar-,burni ko’tarildi; dimog’i shishdi* frazemalari uchun umumiy mundarija *‘kibrlan, gerday’* bo’lsa-da,bu umumiy ma’noning gavdalanishi turlicha. *Burnini ko’tar-, burni ko’tarildi* frazemasiga nisbatan kuchliroq. Sh.Rahmatullayev farzosinonimlarda baho semasi odatda bo’rtib turishini, asli frazemalar xuddi shu maqsad bilan, voqelikni nomlashda uni o’tkir baholab berish uchun, ijobiy yoki salbiy munosabatni yaqqol ifodalash uchun yaratilishini ta’kidlab o’tadi²⁶.

Shunindek, olimning qayd etishicha, frazosinonimlar nutqiy xoslanish jihatidan rang-barang emas, asosan so’zlashuv nutqiga, qisman boshqa nutq ko’rinishlariga xoslangan. Masalan, *ko’zini yum-, dunyodan o’t-* frazemalari adabiy nutqqa, shularning sinonimi *jon ber-* frazemasida esa so’zlashuv nutqiga xoslangan.

²³ Rahmatullayev Sh. O’zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari.-T,1996.B.131.

²⁴ Rahmatullayev Sh. O’zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari.-T,1996.B.146.

²⁵ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili.2-kitob.-T,2010.B.183-184.

²⁶G’aniyaeva Sh. Sh.Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar haqidagi qarashlari //Tilshunoslikning dolzarb masalalari.-T.,2015.B.46.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, frazeologik sinonimiya deganda, bir ma'noni ifodalovchi turli strukturali frazeologizmlar nazarda tutiladi. Bunda har bir sinonim frazeologizm turli obrazlarda shakllanadi va ularda umumiy so'z komponent ham bo'lmaydi. Sinonim frazeologizmlar umumtil frazeologizmlari asosida emas, balki til frazeologik shakllanish tizimi asosida, turli doiralarda, lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida yuzaga keladi.

V.T.Shklyarov fikriga ko'ra, frazeologik birliklar ikki holatda sinonim bo'la oladi²⁷:

a) agarda ularda ma'no yaqinligi bo'lsa; b) agarda har bir frazeologizm o'zi alohida ma'lum bir so'z yoki sinonimik qatorni tashkil qiluvchi so'zlar guruhiga sinonim bo'la olsa.

T.A.Bertagayev va V.I.Zimin yondashuviga ko'ra FSlar bu bir xil predmetlilik ma'nosini ifodalovchi, ammo bir-biridan ekspressiv-ma'no bo'yoqdorligi bilan farqlanuvchi birliklardir²⁸.

M.I.Sidorenko esa frazeologik sinonimiya deb, bir ma'noni anglatuvchi, bir xil predmetlilik belgisiga va funksional ahamiyatga ega, shuningdek grammatik va sintaktik funksiyalari umumiyligini aytadi.

Yuqoridagi ta'riflarning mualliflari va boshqa tilshunos olimlar frazeologizmlarda sinonimiyaning bosh xususiyati bu birliklar orasidagi ma'no yaqinligida deb biladilar. Ko'p tilshunoslarning fikricha, FSlar semantik va stilistik bo'yoqdorligi bilan bir biridan farq qiladi.

FSlarda uslubiy bo'yoq, odatda, bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar xuddi shu maqsadda voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Frazeologik sinonimiya hodisasai ko'proq har bir tilning o'z FBlari doirasida uchraydi.

²⁷Абидов М. Субстантивные фразеологизмы в современном персидском языке.-М.,1988.С.100-107.

²⁸Қўрсатилган асар. – Б.100-102.

²⁸Қўрсатилган асар. – Б.101.

FSga oid ishlarda asosan fe'l va ravish FBlari o'rganilgan bo'lib, ot frazeologizmlarda sinonimiya hodisasini o'rganishga bag'ishlangan ishlar nisbatan oz. Buning sababi shundaki, ko'p holatlarda ot frazeologizmlari ma'lum predmetning nomini ifodalaydi, bunday holatlarda uning emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalashga zaruriyat yo'q. Shunga qaramasdan, dariy tilida ot frazeologizmlarida sinonimiya hodisasi uchraydi²⁹.

Dariy tilidagi ot frazeologizmlarida sinonimiya hodisasi uchrashining sababi shundaki, predmetlarni nomlashda ularning alohida xususiyatlari boshqa predmetlar bilan solishtirilishi oqibatida aynan bir predmet turlicha ta'riflanishi (nomlanishi) mumkin. Masalan,

دل چرکین = خاک بر سر *'hafa bo'lgan, bechora, dilsiyoh, baxtiqaro'*

نور چشم = پاره تن *'jigarband, aziz inson, sevimli bola, farzand'*

گل صدتومنی = شقایق پریر *'pion (gul nomi)'*

لب ناردان = یاقوت خام *'oshiqning labi'*

آفتاب سر کوه = آفتاب لب بام *'ko'p umr ko'rgan kishiga nisbatan aytiladi'*

اسم من حمیده است و اسم اینخاک بصرم ربابه

'Mening ismim Hamida, bu baxtiqaroning ismi esa Raboba'

Yuqoridagi misollarda ko'rib turganimizdek, ot frazeologizmlarida sinonimiya deb, bir xil yoki bir biriga yaqin ma'noga ega, lekin turli komponentlardan tashkil topgan birliklarga aytamiz.

FS lar leksik sinonimlar kabi juft bo'lishi mumkin va uch yoki undan ortiq birikmalardan iborat sinonimik qatorni tashkil qila oladi. Juft frazeologik sinonimlar kabi sinonimik qatorlar ham, asosan bir semantik tipga xos birikmalardan tashkil topgan bo'ladi. Masalan,

کاسه زانو = کنده پا *'tizza kosasi, tizza'*-ikki FBning ma'nosi qisman asoslangan.

فلکجلاد = اسقر = شهنه پنجم پسر نهس *'Mars, osmon jallodi'* - har uch FBning ma'nosi asoslanmagan.

خاک مزار = مقک غار = آخرتخوابگاه *'qabr, mozor g'ori, dahshatli qamoqxona'*-har uch FBning ma'nosi asoslanmagan.

²⁹ Абидов М. Субстантивные фразеологизмы в современном персидском языке.-М,1988.С.100.

'farishta, osmon malagi, go'zal, farishtadek begunoh'.

(3:14) یکی دختر جوان ، فرشته آسمانی جلوی او ایستاده بود

'Bir yosh qiz, osmon farishtasi uning oldida turgan edi'

Ammo bir semantik tipga tegishli bo'lmagan frazeologik sinonimlar ham mavjud. Masalan, *'nikohsiz tug'ilgan farzand'* = ولد زنا = تخم حرام = بچه سر راهی = نصب نامشروع

Ushbu misoldagi birinchi uch FBlarning ma'nosi asoslanmagan, to'rtinchi FBning ma'nosi asoslangan.

شقایق پریر *'pion (gul nomi)'* شقایق پریر = گل صدتومنی
FBsining ma'nosi asoslanmagan, FBsining ma'nosi qisman asoslangan.

Dariy tilidagi ba'zi ko'p ma'noli ot frazeologizmlariga qisman sinonimiya hodisasi xos. Ya'ni ko'p ma'noli frazeologizmning ma'nolaridan biri ham boshqa frazeologizm bilan sinonim bo'lishi mumkin. Masalan, frazeologizmi uch xil ma'noga ega: a) *'oshqozon og'rig'i'* b) *'yurak og'rig'i'* d) *'g'am, qayg'u'*.

Yuqoridagi frazeologizmning *'g'am, qayg'u'* ma'nosi bilan quyidagi frazeologizm sinonim bo'la oladi:

Ushbu FB lar ham *'g'am, qayg'u, dard'* = دق دل = اغده دل = زنگ دل = غبار دل
ma'nosida kelgan.

شما باید با من کمی حوصله داشته باشید. بگذارید کمی دق دلم را خالی کنم

'Siz menga nisbatan shavqatli bo'lishingiz kerak. Ijizat bersangiz dardimni sizga aytay...'

Yoki FBsi ham uch ma'noga ega: a) *'muqaddas kitob'* b) *'Qur'on'*, d) *'Bibliya'*. Ushbu FBning *'Qur'on'* ma'nosiga مصحف شریف va آیه منزل so'zlari sinonim bo'la oladi.

Dariy tilida leksik-frazeologik sinonimiya hodisasini ham kuzatishimiz mumkin. Ya'ni, bir sinonimik qator ichida alohida so'zlar bilan birga FBlar ham kela oladi. Masalan, *'pora'* ma'nosida رشوه so'zi bilan; آجیل مشکل گشا va پاره جبرایل

va ارباب فصل *'pul'* ma'nosida پول so'zi bilan; حلال مشکلات va پاره جبرایل
FBlari *'yozuvchilar'* ma'nosida نویسندگان so'zi bilan sinonim bo'la oladi.

Ko‘rib turganimizdek, dariy tilida sinonimik juftliklar bilan birga, sinonimik qatorlarni tashkil qiluvchi OFBlar ham mavjud. Shuningdek, ba’zi OFBlar sinonimik variantdosh qatorlarni tashkil qiladi, lekin barcha OFB sinonimlari variantlarga ega bo‘lavermaydi. Masalan,

‘nikohsiz tug‘ilgan’ تخم (نتفه) حرام = ولاد (تحم) زینا = بچه سرراهی (کوی) = نسب نامشروع
farzand, tashlandiq bola’

این بچه سرراهیا اینکه ابتدا بد و بی تربیت بود ولی آخر از آب خوب در آمد

‘Bu tashlandiq bola dastavval beodob va betarbiya edi, ammo oxir oqibat yaxshi inson bo‘lib voyaga yetdi’

Asosanmay, sohibjamol, oy, osmon, qorong‘ukecha, ko‘zyosh, quyoshkabima’ nolar nib eruvchiso‘z birikmalari uzunsinonimik qatorlarni tashkil qiladi. Bunday FB larda metafora sezilib turadi³⁰. Masalan,

یاقوت روان (مذاب) = لعل سفته (مذاب) (روان) = دختر آفتاب = گریه تاک = فرزند مجوس

kabi FB larda ‘may’ ma’nosini beradi. اشک تلخ = خون پیاله

از آن اشخاصی میبایشد که هنوز لبثان به دختر خام نرسیده پاتیل می شوید

‘Siz, mayni og‘izga olmay mast bo‘luvchi kishilardansiz’

Frazosinonimlar haqida fikr yuritilganda, ma’no gradatsiyasi³¹ xususida bahs yuritishga to‘g‘ri keladi. Chunki sinonimlar qatorida o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan uzvlar o‘rtasida ko‘p hollarda ma’no darajalanishi mavjud bo‘ladi. Bu esa sinonimik qatordagi a’zolar o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lishi bilan birgalikda, graduonimik munosabatga ham kirishishini taqozo etadi. Sinonimik munosabat sinonimik a’zolarining bir integral sema asosida birlashishini ko‘rsatsa, graduonimik munosabat bir integral sema ostidagi sinonimik a’zolarining farqli belgilarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *boshi egildi, yuzi shuvut bo‘ldi, boshi xam bo‘ldi* sinonimlari qatoridagi birinchi a’zo belgining kuchsizligini, ikkinchisi esa unga nisbatan kuchli belgini ifoda etadi. Frazosinonimlardagi ana shu xususiyatni e’tiborga olgan holda, professor Sh.Rahmatullayev bu munosabatni yoritishga diqqatni tortadi va yuqorida bayon

³⁰ Абидов М. Субстантивные фразеологизмы в современном персидском языке. -М, 1988. С.100.

³¹ G‘aniyeva Sh.

Sh.Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar haqidagi qarashlari // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. T., 2015. B.48.

qilinganidek, frazosinonimik qatordagi ayrim a'zolar ma'noning kuchayish darajasiga ko'ra farqlanishini ko'rsatadi.

2-bob yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Variantlanishfrazemalarda boshqa lisoniy birliklardagidan ko'ra ko'p uchraydi (frazemalarning deyarli yarmiga xos); chunki frazema murakkab qurilishli bo'lib, turli-tuman o'zgarishlar uning tarkibidagi leksemalarda ham, morfemalarda ham yuz beradi.

2. Frazelogik variantlanish umumtil frazeologizmlari asosida yuzaga keladi va ular ma'lum frazeologizmga asoslanadi yoki tilda mavjud bo'lgan frazeologizmlardan o'sib chiqqan bo'ladi, turli obrazlarda shakllanadi va ularda umumiy so'z komponent mavjud bo'ladi.

3. Frazelogik variantlanishning quyidagi belgilari mavjud:

a) obrazning umumiyligi; b) denotativ va signifikativ ma'nolarining umumiyligi; c) tildagi vazifalari va kategorial (leksik-grammatik) ma'nolarining mos kelishi; d) umumiy so'z komponentining mavjud bo'lishi.

OFBlarda frazeologik variantlar dastlab leksik va grammatik, leksik-grammatik, fonetik va grafik variantlarga bo'lingan holda farqlanadi. Leksik variantlarda so'z- komponent : 1) almashtiriladi, 2) qo'shiladi, 3) tashlanadi: وعده *yolg'on va'dalar* = سر خرمن = حواله سر خرمن

Odam Ato olmasi. = سیب آدم = سیب حضرت آدم

4. Grammatik variantlar odatda frazemaning ichki grammatik qurilishida voqe bo'ladigan o'zgartirishlar bilan yuzaga keladi. Dariy tilida grammatik variantlarni morfologik va sintaktik variantlarga ajratish mumkin :

beparvolik, beg'amlik, yolg'on = خواب خرگوش = خواب خرگوشی

ziddiyat, qarama-qarshilik = کوسه ریشخواهن = کوسه و ریشخواهن

5. Leksik-grammatik variantlarda frazeologizm tarkibidagi biror komponent boshqa so'zga almashtirilishi bilan birga FBning ichki qurilishida

grammatik o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Ushbu variantlar leksik-morfologik va leksik-sintaktikvariantlarga bo'linadi:

محرم راز = محرم اسرار *'ishonchli do'st'*

بد سولت = بد و باروت *'dimog'dor, takabbur'*.

6. Fonetik va grafik variantlar paydobo'lishiarabtiliyozuvi, shuningdek,dariyvaarabtillariningfonetiktiziminingxususiyatlaribilanbevositabog'liqbo'lib,

ba'ziarabiyso'zlarningdariytiligao'zlashuvidafarqlanishlarvujudgakelishisababbo'lgan:كوچة خاموشان = كوچة خموشان *'qabriston'*.

7. Frazelogik sinonimiya deganda, bir ma'noni ifodalovchi turli strukturali frazeologizmlar nazarda tutiladi. Bunda har bir sinonim frazeologizm turli obrazlarda shakllanadi va ularda umumiy so'z komponent ham bo'lmaydi.

8. Dariy tilidagi ot frazeologizmlarida sinonimiya hodisasi uchrashining sababi shundaki, predmetlarni nomlashda ularning alohida xususiyatlari boshqa predmetlar bilan solishtirilishi oqibatida aynan bir predmet turlicha ta'riflanishi (nomlanishi) mumkin: خاك برسر = دل چرکين *'xafa bo'lgan, bechora, dilsiyoh, baxtiqaro'*.

9. Juft frazeologik sinonimlar kabi sinonimik qatorlar ham, asosan bir semantik tipga xos birikmalardan tashkil topgan bo'ladi:کاسه زانو = کنده پا:

'tizza kosasi, tizza'.

Ammo bir semantik tipga tegishli bo'lmagan frazeologik sinonimlar ham mavjud. Masalan, نصب نامشروع = بچه سر راهی = تخم حرام = ولد زنا *'nikohsiz tug'ilgan farzand'*

XULOSA

Dariytilidafrazeologikbirliklar tilshunoslikning bir bo'lagi sifatida kundan – kunga shakllanib, yangicha ko'rinishga ega bo'lib bormoqda. Frazzeologiya sohasining strukturasi, semantik va funksional xususiyatlari hali hech bir tilda to'liq o'rganilmagan. Ushbu soha o'zining tarixi, rivojlanishi, ma'no ifodalash imkoniyatlari, tilshunoslikning ma'lum bir boshqa sohalari bilan o'xshash bo'lgani hamda majoziy ma'no anglatishi bilan boshqa turg'un birikmalar ichida ustunligi dunyo olimlarining e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Frazzeologiya sohasining tarkibiy qismi ham ko'plab tilshunos olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Ular ma'lum bir turlarga, qismlarga, turkumlarga klassifikatsiya qilinib o'rganib chiqildi.

Ushbu malakaviy ish frazeologiyaning hali o'rganilmagan tarkibiy qismlaridan biri bo'lganOFBlarga va ularning leksik variantlariga bag'ishlangan bo'lib, bu mavzuni ma'lum bir qirallarini ochib berishga xizmat qiladi.

Malakaviy ishning kirish qismi FB va uning turlar haqidagi ma'lumotlar hamda OFBlarda oid mavjud barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Asosiy qismning ikki bobi esa dariy tilida OFBning struktur tahlili va ularning leksik variantlari masalasi o'rta tashlandi.

Dariy tilida ot frazeologizmlari va ularning leksik variantlari mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ot frazeologik birliklar bu-tayanch a'zosi ot, sifat yoki boshqa otlashgan so'z bilan ifodalangan birikmaga teng bo'lgan frazeologizmlardir. Ular nominativ vazifa bajaradi. OFlarning sintaktik qurilishi erkin birikmaga teng bo'ladi, tarkibi ikki va undan ortiq ismiy so'z turkumiga mansub so'zlardan tashkil topadi va erkin birikmalardan o'zining frazeologik xususiyatlari bilan farqlanadi. Ot frazeologizmlari deganda, otlashgan frazeologik birlik tushuniladi.
2. OF komponentlarini bog'lab turuvchi grammatik vositalarga ko'ra izofali, old ko'makchili, kopulyativ, bitishuvli va old ko'makchi birikma boshida kelgan frazeologik birliklarga bo'linadi.
3. OFBlarning asosan ikki komponentlilari keng tarqalgan.

4. OFBlar tarkibidagi komponentlar modellashtirilishi natijasida ot+ot va sifat +sifat modelidagi OFBlar ko‘p uchraydi.

5. OFBlar tarkibida yetakchi so‘z leksik ma’nosini saqlab qolib, tobe so‘z esa asosan leksik ma’nosini yo‘qotib, majoziy ma’no kasb etadi.

6. OFBlar xuddi otlar kabi turlanish xususiyatiga ega. Ot frazeologizmlari tarkibiy tuzilishi jihatidan quyidagi guruhlariga bo‘linadi: bir, ikki, uch va to‘rt komponentli hamda murakkab komponentli frazeologizmlar. Boshqa frazeologizmlardan farqli ravishda ot frazeologizmlar gapda ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va kesim vazifasida kela oladi.

7. Variantlanish frazemalarda boshqa lisoniy birliklardagidan ko‘ra ko‘p uchraydi (frazemalarning deyarli yarmiga xos); chunki frazema murakkab qurilishli bo‘lib, turli-tuman o‘zgarishlar uning tarkibidagi leksemalarda ham, morfemalarda ham yuz beradi.

8. Frazeologik variantlanishning quyidagi belgilari mavjud:

a) obrazning umumiyliigi;b) denotativ va signifikativ ma’nolarining umumiyliigi; c) tildagi vazifalari va kategorial (leksik-grammatik) ma’nolarining mos kelishi; d) umumiy so‘z komponentining mavjud bo‘lishi.

9. OFBlarda asosan ikki va uch variantlilik keng tarqalgan. OFBlarda frazeologik variantlar dastlab leksik va grammatik, leksik-grammatik, fonetik va grafik variantlarga bo‘lingan holda farqlanadi. Leksik variantlarda so‘z-komponent : 1) almashtiriladi, 2) qo‘shiladi, 3) tashlanadi. OFBlarda grammatik variantlar grammatik qismni almashtirish, yoki unga qo‘shish bilan voqe bo‘ladi. Leksik-grammatik variantlarda frazeologizm tarkibidagi biror komponent boshqa so‘zga almashtirilishi bilan birga FBning ichki qurilishida grammatik o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Fonetik va grafik variantlar paydo bo‘lishi arab tili yozuvi, shuningdek dariy va arab tillarining fonetik tizimining xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ba’zi arabiy so‘zlarning dariy tiliga o‘zlashuvida farqlanishlar vujudga kelishi sabab bo‘lgan. Polisemantik frazeologizmlarda leksik variantlar imkoniyati har bir frazeologik ma’no bo‘yicha o‘rganilishi, ta’kidlanishi kerak.

10. Frazеologik birliklar tarkibidagi somatizmlar asosan ko'chma ma'noda qo'llangan bo'ladi. Aynan mana shu ko'chma frazeologizm ma'nosining shakllanishida xizmat qiladi. Shuning uchun avvalo somatik leksemalarning barcha lug'aviy ma'nolarini bilish talab etiladi.

11. Dariy tilidagi ot frazeologizmlarida sinonimiya hodisasi uchrashining sababi shundaki, predmetlarni nomlashda ularning alohida xususiyatlari boshqa predmetlar bilan solishtirilishi oqibatida aynan bir predmet turlicha ta'riflanishi (nomlanishi) mumkin.

12. Har bir sinonim, shu sinonimiya qatori uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrbo‘lag‘asida: xavfsizlikkatahdid, barqarorlikshartlarivatareqqiyot kafolatlari. – T.: ‘O‘zbekiston’, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: ‘Ma’naviyat’, 2008.
3. Barkamol avlod orzusi. Prezident I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan ‘Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori’nomli nutqidan. – T.,1999.

O‘zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. Xozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari -T.,1991.
2. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarini shakllanish masalalari - T.,1999.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologik lug‘ati.-T.,1996.B.3.
4. Rahmatullayev Sh.O‘zbek tili frazeologiyasining ba’zi masalalari. - T., 1966.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T.,2006.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.2-kitob.-T,2010.
7. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari. - T., 1993.
8. G‘aniyaeva Sh. Sh.Rahmatullayevning frazeologik sinonimlar haqidagi qarashlari //Tilshunoslikning dolzarb masalalari. T.,2015.

Rus tilidagi adabiyotlar:

1. Абидов М. Субстантивные фразеологизмы в современном персидском языке. – М.,1988.
2. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.,1978.

3. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. - М.,Наука,1981.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar

- (1) پرويز ناتل خانلری تاريخ زبان فارسی بخشی از جلد دوم، ساختمان فعل، تهران تاريخ زبان فارسی، ۱۳۴۹
- (2) دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی، دستور زبان فارسی ۱. (ویرایش ۲). -تهران:
- (3) فاطمی، ۱۳۷۴ دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی، دستور زبان فارسی ۲. (ویرایش ۲). -تهران: فاطمی، ۱۳۷۶
- (4) علی اکبر دهخدا، لغت نامه ی دهخدا. مؤسسه ی انتشارات و چاپ دانشگاه تهران، ۱۳۷۳

Adabiy manbalar

1. عنایت الله شهرانی. ضرب المثلهای دری افغانستان
2. ۱۴ص. ۱۳۶۲. کابل. دريفراز يولوژيمجتصر قاموس. احمدسيار
3. شراره،خنجر و آيينه.ار غنډبیرک